Hozirgi vaqtida innovatsiyalardan foydalanish asosida jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi paradigmasi shakllanmoqda. O'zbekiston ushbu jarayonlarning ishtirokchisi va iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan, qishloq xo'jaligida innovatsion jarayonlarning faollashuvini ta'minlamoqda. Ushbu masalalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarorida ham alohida e'tibor qaratilgan. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tish nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'ida to'planib qolgan muammolarni, balki ushbu tarmoq oldida turgan asosiy vazifalarni ham hal etish zarurligi bilan bog'liq. Hozirgi sharoitda innovatsion faoliyat qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Mazkur omildan imkon qadar ko'proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta'minlashning yagona yo'lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jadallahib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsion yo'liga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'ini zamон talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texnik-tehnologik asosda tiklashi lozim. Aks holda, qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishdan ortda qoladi va o'zining raqobatbardoshligini ta'minlay olmaydi. Hozirgi kunga qadar qishloq xo'jaligining rivojlanishi eng muhim ustuvor yo'naliishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq aholisi, balki mamlakatimiz aholisining moddiy



farovonligini oshirish bebafo boyligimiz bo'lgan yerimizning unumdarligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovations faoliyatning samaradorligiga bog'liq. Innovatsiyalarni o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslarini, uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlaridan J.Addison (2001) Agrar munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslarini P.Samuelson, (1992), Agrar munosabatlarning tartibga solish S.Bryu, K.Makkonnell (1992) va boshqalarning tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganigan. Ular tomonidan agrar munosabatlarning keng qamrovli konsepsiysi shakllantirilgan.

Agrar munosabatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va mam-lakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni MDH olimlaridan Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova (2011), Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar Balabanov V.S., Borisenko E.N. (2012) va boshqa olimlar ishlarida dehqon xo'jaliklarining rivojlanish tendensiyalari, evolyusiyasi va agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish muammolari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga D.Tadjibaeva (2020), agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni I.B.Rustamova (2020), oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini B.O. Dusmatov (2022), aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash Ch.P. Xo'jageldiev (2022), iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini S.R.Topildiev (2023) lar o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasiga ko'ra, iqtisodiyotning chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dasturda qishloq xo'jaligini rivojlantirish jumladan: chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilashga qaratilgan.

**1-jadval: O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dasturning maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2021-yil	2022-yil	2024-yil	2026-yil
<b>Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash yo'nalishida</b>					
1.	Aholi jon boshiga sut mahsulotlari ishlab chiqarish (kishi/kg)	336	360	400	560
2.	Aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish (kishi/kg)	47,5	49,1	58,4	69,4
3.	Aholi jon boshiga tuxum yetishtirish (kishi/dona)	236	247	280	329
4.	Sut yetishtirish hajmi (ming tonna)	11 505	12 100	14 500	22 000
5.	Qoramol go'shti yetishtirish (tirik vaznda, ming tonna)	1 980,5	2 110,5	2 372	2 864
6.	Qo'y va echki go'shti yetishtirish hajmi (ming tonna)	400	425	527	650
7.	Bir bosh sigirning o'ttacha sut mahsuldarligi (kg)	2 450	3 450	4 500	5 000
8.	So'yishga mo'ljallangan bir bosh qoramolning o'ttacha tirik vazni (kg)	370	390	400	450
9.	Parranda go'shti yetishtirish hajmi (ming tonna)	210	330	583	536
10.	Tuxum yetishtirish miqdori (mln dona)	8 100	8 690	10 237	12 876
11.	Baliq yetishtirish (ming tonna)	400	600	800	1 000
12.	Asal yetishtirish (ming tonna)	25,0	27,1	35,2	52,5
13.	Quyon go'shti yetishtirish (ming tonna)	0,1	2,3	14	23



Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib tahlil qilib ko'rsak, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan aholi jon boshiga sut mahsulotlari ishlab chiqarish 24 kgga oshganini ko'rsa bo'ladi;

2022-yilda 2021-yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish 24 kgga oshgan;

2022-yilda 2021-yilga nisbatan aholi jon boshiga tuxum mahsulotlari ishlab chiqarish 1,6 kgga oshgan;

2022-yilda 2021-yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish 11 donaga oshgan.

2022-yilda 2021-yilga nisbatan yiliga baliq mahsulotlari ishlab chiqarish 200 ming tonnaga oshgan;

2022-yilda 2021-yilga nisbatan yiliga asal mahsulotlari ishlab chiqarish 2,1 ming tonnaga oshgan.

Shundan kelib chiqib, 2024-2026-yillarga 2-yillik prognozlashtirish hisoblangan.

Qishloq xo'jaligida davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayonida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakllari etib, fermer va dehqon xo'jaliklari tanlab olindi. Fermer xo'jaliklarini rivojlan Tirishni rag'batlanirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning barqaror va samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatlar iqtisodiyoti turi va rivojlanish darajasiga qarab, asosan, xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyot, industrial iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga bo'linadi. Innovatsion iqtisodiyot iqtisodiyotning eng yuqori rivojlangan turi hisoblanadi va u uchun bilimli jamiyat xosdir. Hozirigi kunda fan-teknika yutuqlarini keng joriy etish va undan samarali foydalanish uchun turli mexanizmlar va institutsional tuzilmalar, ya'ni milliy innovatsion tizim shakllanmoqda. Qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishda qishloq xo'jaligini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish ustuvor yo'naliishlardan biridir.

Respublikamizning Milliy ko'rgazma majmuasi "O'zekspomarkaz" ning 1 va 2 chi pavillonlarida "Agroexpo Uzbekistan – 2023" hamda "Agrotech va Agromash Expo 2023" qishloq xo'jaligi ko'rgazmalari o'z ishini boshladi. Ko'rgazmada Qishloq xo'jaligi vazirligi vakillari, agrar sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar va yirik ishlab chiqaruvchi kompaniyalar rahbarlari ishtirot etmoqda. Ko'rgazmada 20 dan ortiq rivojlangan davlatlardan 170 ga yaqin kompaniyalar agrosanoat majmuasining zamonaviy texnologiyalari, mahsulotlari, uskunalarini va yangiliklarini namoyish etishmoqda. Unda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashtirishga mo'ljallangan ixcham liniyalar, qadoqlash minitexnologiyalari, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va bog'dorchilik uskunalarini, ozuqa tayyorlash, bog'dorchilik va uzumchilik sohasi uchun minitexnika hamda uskunalar, o'simliklarni himoya qiladigan kimyoviy moddalar, issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha keng turdag'i mahsulot va xizmatlar namoyish etildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirishga va innovatsiya bazasini mustahkamlash uchun barcha zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslar mavjud.

Biroq agrar sohani innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, yoki boshqacha aytganda, innovatsion loyi halarni bir, hatto bir necha fermer xo'jaliklari miqyosida ham amalga oshirishda muammolar mavjud, chunki:

*birinchidan*, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi subyektlar hozirgi vaqtida ilmiy tadqiqot ishlariiga buyurtma berish hamda tadqiqotlarni moliyalashtirishda ishtirokining sustligi;

*ikkinchidan*, ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda tadqiqot olib borish va ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni ham xo'jalik subyekti o'zi amalga oshira olmaydi;

*uchinchidan*, yangi texnologiya, yangi navlardan foydalanish uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarining yetarli darajada bilimlarga ega emasligi, ular olimlar va mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari zarur, shuningdek, mahsulotni qayta ishlashtirish va sotishda ham fermerlar ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar;

*to'rtinchidan*, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari olimlari tomonidan tayyorlangan innovatsion ishlanmalarga ishlab chiqaruvchilarning talabi yetarli darajada emasligi, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud emas;

*beshinchidan*, ayrim qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning mas'uliyatsizligi.

Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda mamlakatlararo integratsiya sharoitida respublikada qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligi tarmog'ini va qishloqni, shu bilan birga qishloq infratuzilmasini, yangi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi zarur. Bu yo'l orqali zamonaviy texnik-texnologik asosida qishloqning mavqeini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish hozirgi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Tahlliarga ko'ra, O'zbekiston agrar sektorida innovatsiyalar hajmi jami yalpi ichki mahsulot hajmida 1–2 %ni tashkil etadi, qishloq infratuzilmasi tarmog'ida esa bu ko'rsatkich undan ham kam, vaholanki ushbu ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarda 50–60% dan ko'proqni tashkil etadi. Ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi quyidagi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi:

- jahon miqyosidagi talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi;
- mahsulot tannarxi ahamiyatli darajada pasaytirilishi hisobiga korxonaning moliyaviy natijalari yuqori bo'lib, imkoniyatlari kengayishi; xomashyo va resurslar tejalishi; atrofmuhitga salbiy ta'sir qisqarishi va h.k.



Agar mazkur texnika va texnologiyalar innovatsion tavsifga ega, ya'ni ilgari amalda qo'llanilmagan ishlanma va g'oyalarga asoslangan bo'lса, u holda ulardan foydalanishning iqtisodiy-iжtimoiy ahamiyati yanada yuqoriqо bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi ushbu sohada qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarga nisbatan yuqoriqо samaraga erishish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishni, yuqori samara beradigan yangi mashinalar va asbob-uskunalarни, agrotexnika va zootexnika usullarini, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni yangi metodlarini joriy etishni taqozo qiladi. Eng samarali usul va metodlarni tanlash va joriy etish uchun ularni oldindan tekshirib ko'rish, ularga tashkiliy-iqtisodiy jihatdan baho berish talab qilinadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida bunday baho berish milliy iqtisodiyotning samaradorlik mezoni, ya'ni ijtimoiy mehnat unumdarligini oshirish asosida amalga oshiriladi, mehnat unumdarligini oshishi esa ishlab chiqarish hajmini va milliy daromadni o'stirishda ifodalanadi. Bunga har bir qishloq xo'jaligi korxonasida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarini qisqartirish, sof daromadni orttirish asosida erishiladi. Bu qoidalarga asosan qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishning yangi usul va metodlari iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quydagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llanilad:

- bir gektar yer hisobiga va bir bosh mol hisobiga olinadigan yuqori sifatli mahsulot miqdori;
- mehnat unumdarligi;
- mahsulot tannarxi;
- sof daromad va rentabellik;
- kapital mablag'lar va ularning o'z o'rnini qoplashi.

Mazkur ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'langan va bir-birini taqozo qiladi. Mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lса, uning sifati yaxshi bo'lса, mehnat unumdarligi yuqori, tannarxi arzon bo'lса, sof daromad ko'p va rentabellik yuqori bo'lса, kapital mablag'lar shuncha kam talab qilinadi va ular tezroq o'z o'rnini qoplaydi, yangi usul va metodlarning iqtisodiy samaradorligi shu qadar yuqori bo'ladi.

Yangi usul va metodlar, agar zarur bo'lib qolsa optimallashtiriladi. Bu optimallashtirish xo'jalik vazifalarini hal qilish uchun mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda juda ko'p, xilma-xil variantlardan eng samaralilarini tanlab olish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzlusiz ta'minlash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalardan sanaladi. Bu borada:

- paxta va boshoqli don ekin maydonlarini qisqartirish evaziga kartoshka, sabzavot, poliz, ozuqa va moyli ekinlar, yangi intensiv bog'lar va uzumzorlar maydonini kengaytirish va optimallashtirish;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlarini rivojlantirish, tarmoqqa intensiv, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdarligi yuqori texnikalardan foydalanish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga mos yangi seleksiya navlarini va yuqori mahsuldarlikka ega hayvonot zotlarini yaratish hamda joriy etish bo'yicha ilmiytadqiqot ishlarini kengaytirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash asosida oziq-ovqat va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqaradigan zamonaviy qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish, sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmalarini rivojlantirish;
- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olib, quydagicha yechimga keldik, qishloq xo'jaligida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish va uning bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlanishdan orqada qolmasligi uchun tarmoqda erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi mulk va mulkchilik shakllarining, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ular o'rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy, uslubiy asoslarini takomillashtirish, investitsiyalarni ko'proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, cheklangan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish,



doimiy va o'zgaruvchi kapitaldan hamda mehnat resurslaridan qisqa va uzoq muddatlarda to'liq va samarali foydalanish yo'llarini aniq belgilash lozim hamda, barcha xarajatlarni tejash, mehnat unumdarligini yuksaltirish, dehqon va ishchilarini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko'paytirish yo'llarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan 7 614 tasi qoramolchilik, 3 263 tasi qo'y va echkichilik, 142 tasi yilqichilik, 52 tasi tuyachilik, 1 163 tasi parrandachilik, 4 829 tasi baliqchilik, 715 tasi asalarichilik va 254 tasi quyonchilik yo'nalishida tashkil etilgan.

Birgina qoramolchilik yo'nalishida 500 boshdan 1 000 boshgacha chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 256 taga, 1 000 bosh va undan yuqori chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 136 taga yetdi.

Chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish mazkur Dasturga ilovada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi.

Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha har yili 20 dekabrga qadar kelgusi yilga mo'ljalangan chora-tadbir ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Dasturning maqsadli ko'rsatkichlariga erishilishi ustidan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

Innovatsion rivojlanish muammolari O'zbekiston uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki faqatgina yangi resurstejamkor, ilg'or texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda innovatsion rivojlanish atrof-muhitni ekologik toza saqlab qolishni hisobga olgan holda iqtisodiyot barqarorligini jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlash lozim.

Zamonaviy texnologiyalarning turli variantlarini taqqoslash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yerga eng kam ishlov berish, joriy va investitsiyaviy xarajatlarni tejash, tannarxi ancha past bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va narxlarning bir xil darajasida har bir ekin bo'yicha bir hektar yerdan ko'proq daromadlar olish imkonini beradi. Ammo, texnologiyalarni o'zgartirish – tizimli yondashuvni, an'anaviy texnologiyalardan yangi resursni tejovchi texnologiyalarga o'tishda korxonaning texnologik tizimida yuz beradigan barcha o'zgarishlar haqidagi bilimlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi korxonalarida texnologik va tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalarni joriy etishning jarayonli algoritmlarini ishlab chiqish zarur hamda Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qilib unga qishloq xo'jaligidagi barcha inson resurslarini malakasini oshirib borishga jalb qilish kerak.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'ZBEKISTON – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 fevraldagagi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risidagi PQ-5009-son qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001.–P. 19.
5. Самуэлсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП "АЛГОН", ВНИИСИ, 1992. –432 с.
6. Брю С., Макконнелл К. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: "Республика", 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. – с.156-174,293-310.
7. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – Т.: "Akademiya", 2012.
8. Aliev Ya.E. "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari" Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020.–198-b
9. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – М.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
10. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / – М.: Bilim, 2011-101. b.
11. Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. – Iqt. fan. dok.... dis. – Т.: "Tipograff" MCHJ. 2023.–70 b.
12. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. – T. Fan, 2018. Monografiya -274 b.
13. Tadjibaeva D. Milliy iqtisodiyotda institutsional o'zgarishlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. (O'zbekiston Respublikasi agrar sohasida misolida) Iqt. fan. dok.... dis. avtoref. – T.: O'zRIIVA, 2020. – 81 b.
14. Rustamova I.B. Agrar soxada innovations jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt.... i.f.d. T.: 2020. – 77 b.
15. Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. avt.... i.f.d. T.:2022.-53 b.
16. Xo'jageldiev Ch.P. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdarligini oshirishni rag'batlantirish. avt.... i.f.d. T.: 2022.-56 b.
17. Topildiev S.R. XXI Asr suv muammosi: O'zbekistonda va markaziy osiyoda bartaraf etish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2023-yil. 5-son.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

